



UDK: 81:398

Olimjon JALILOV,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti
E-mail: olimjonmjililov@gmail.com

SamDChTI dotsenti, PhD X.Abdusalomov taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA LINGVOFOLKLORISTIKANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida lingvofolkloristikaning ilmiy-nazariy asoslari qiyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Folklor matni tilshunoslik, folklorshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va pragmatika kesishgan nuqtada talqin qilinib, uning og‘zaki tabiati, formulalilik xususiyati, semantik barqarorligi, variantiligi va ijroi (performativ) mohiyati yoritiladi. Maqolada ingliz tilidagi ilmiy an‘ana vakillarining nazariy qarashlari hamda o‘zbek olimlarining ilmiy kuzatishlari lingvofolkloristik tahlil uchun metodologik asos sifatida qo‘llanadi. Shuningdek, muallifning shaxsiy mulohazalari va ingliz-o‘zbek folklor matnlaridan tipik misollar asosida lingvofolkloristika mustaqil ilmiy platforma sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Lingvofolkloristika, folklor matni, og‘zakilik, formulalilik, variantlilik, paremiologiya, lingvomadaniy birlik, qiyosiy tahlil, pragmatika, doston tili.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВОФOLKLORISTIKI В ANGLIYSKOM I UZBEKSKOM YZYKAX

Аннотация

В данной статье научно-теоретические основы лингвофольклористики в английском и узбекском языках анализируются с сравнительной точки зрения. Фольклорный текст интерпретируется на пересечении языкознания, фольклористики, лингвокультурологии и прагматики; освещаются его устная природа, формульность, семантическая устойчивость, вариативность и исполнительная (перформативная) сущность. В статье теоретические взгляды представителей англоязычной научной традиции, а также научные наблюдения узбекских ученых используются как методологическая основа для лингвофольклористического анализа. Кроме того, на основе авторских рассуждений и типичных примеров из английских и узбекских фольклорных текстов лингвофольклористика обосновывается как самостоятельная научная платформа.

Ключевые слова: лингвофольклористика, фольклорный текст, устность, формульность, вариативность, паремология, лингвокультурная единица, сравнительный анализ, прагматика, язык дастана.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF LINGUO-FOLKLORISTICS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of linguo-folkloristics in the English and Uzbek languages from a comparative perspective. The folklore text is interpreted at the intersection of linguistics, folklore studies, linguoculturology, and pragmatics, and its oral nature, formulaicity, semantic stability, variability, and performative essence are examined. The article uses the theoretical views of representatives of the English-language scholarly tradition, as well as the scholarly observations of Uzbek researchers, as a methodological basis for linguo-folkloristic analysis. In addition, based on the author's personal reflections and typical examples from English and Uzbek folklore texts, linguo-folkloristics is substantiated as an independent scholarly platform.

Keywords: linguo-folkloristics, folklore text, orality, formulaicity, variability, paremiology, linguocultural unit, comparative analysis, pragmatics, language of epic poetry.

Kirish. Lingvofolkloristika bugungi zamonaviy filologiyada eng istiqbolli va fanlararo yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur yo‘nalish folklorini faqat janrlar majmui yoki etnografik hodisa sifatida emas, balki xalq tafakkuri, tarixiy xotira, axloqiy me‘yor, estetik tasavvur va kommunikativ tajribaning sifatida o‘rganadi. Shu jihatdan qaralganda, folklor matni tilshunoslik uchun oddiy “material” emas, balki lisoniy birliklarning milliy ongdagi ishlash mexanizmini ko‘rsatib beradigan noyob ilmiy manba hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillaridagi folklor matnlarini qiyosiy o‘rganish ikki turli madaniy makon, ikki tipologik til tizimi va ikki xil og‘zaki an‘ananing umumiy hamda xos qonuniyatlarini ko‘rsatadi [1]. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda folklor matnlari faqat an‘anaviy og‘zaki muhitda emas, balki ta‘lim, OAV, badiiy matn, internet diskursi va ijtimoiy kommunikatsiyada ham

faol yashamoqda. Maqol, matal, duo, irim ifodalari, marosim formulalari, topishmoq konstruksiyalari zamonaviy nutqda qayta ishlanadi, qisqaradi, ironik tus oladi yoki yangi pragmatik vazifalarni bajaradi. Demak, lingvofolkloristika nafaqat tarixiy-tilshunoslik masalasi, balki zamonaviy diskurs tahlili, pragmatika va lingvomadaniyat bilan ham chambarchas bog‘liq yo‘nalishdir[3]. O‘zbek ilmiy maktabida ham doston tili, paremiologik birliklar, frazeologik bog‘lanishlar va lingvomadaniy birliklar masalasining faol o‘rganilishi lingvofolkloristikaning nazariy tayanchini mustahkamlab bormoqda.

Lingvofolkloristika - bu folklor matnlarining til birliklari, semantik modeli, pragmatik funksiyasi, lingvomadaniy kodi va kognitiv mexanizmlarini o‘rganuvchi fanlararo yo‘nalishdir. Bu ta‘rifda muhim jihat shuki, folklor matni “tayyor yozma matn” emas, balki *ijro, vaziyat va*

an'ana bilan bog'liq dinamik nutqiy hodisa sifatida talqin qilinadi. R.Bauman folklorini performance (ijro) doirasida ko'rib, matnning ma'nosi uning aytilish usuli, auditoriya bilan munosabati va kommunikativ sharoitda to'liq ochilishini ta'kidlaydi [1]. Bu yondashuv lingvofolkloristika uchun nihoyatda muhim, chunki bir xil leksik formulalar turli vaziyatda turli pragmatik kuchga ega bo'lishi mumkin.

J.H.Brunvand folklor hodisalarini ensiklopedik ko'lamda tasniflar ekan, folklor birligi ko'pincha ijtimoiy xotira va madaniy stereotipning qisqa, ammo semantik jihatdan zich ifodasi bo'lishini ko'rsatadi [2]. Uning yondashuvi lingvofolkloristik tahlilga shuni o'rgatadiki, folkloridagi so'z va obrazlarni oddiy lug'aviy ma'noda emas, balki *madaniy kontekst ichida* o'qish kerak. Masalan, ingliz folklorida seasonal customs yoki folk beliefs bilan bog'liq birliklar ortida ma'lum tarixiy-marosimiy tajriba yotsa, o'zbek folklorida marosim, qarindoshlik, mehmondo'stlik va nasihatga oid birliklar xalqning ijtimoiy-etik kodini ifodalaydi.

O'zbek olimlari U.Jumanazarov va G.Jumanazarova xalq dostonlari tilidagi lingvomadaniy birliklarni tahlil qilib, folklor matnida til birliklari faqat nomlash vositasi emas, balki tarixiy xotira, qadriyat va etnomadaniy tasavvurni tashuvchi birlik sifatida ishlashini asoslaydilar [6]. Ularning kuzatishlaridan kelib chiqib, lingvofolkloristikaning obyekt sifatida maqol, matal, topishmoq, ertak, doston, marosim matnlari, duo-olqishlar, la'nat va boshqa og'zaki formulalar olinadi; predmeti esa ushbu matnlardagi leksik, semantik, morfologik, sintaktik, pragmatik va lingvomadaniy qonuniyatlardan iborat bo'ladi.

Lingvofolkloristikaning ilmiy-nazariy asoslarini tushinishda eng muhim uch kategoriya - *og'zakilik, variantlilik va formulalilik*dir. Og'zakilik folklor matnining tabiiy yashash shakli bo'lib, u xotiraga qulaylik, ritm, takror, paralelizm, semantik ixchamlik va nutqiy ta'sirchanlikni talab qiladi. J.M.Foley og'zaki-formulaviy an'ana bo'yicha tadqiqotlarida folklor matni "tayyor formulalar" va "an'anaviy ifoda segmentlari" asosida tiklanishini ko'rsatadi [3]. Bu fikr o'zbek dostonchiligi, marosim qo'shiqlari va paremiologik birliklarini tahlil qilishda ham juda samarali: ko'plab ifodalar mazmunan yangilanadi, ammo formulaning asliyatini saqlanadi.

Variantlilik folklorning tirikligidan dalolat beradi. Folklor matni qat'iy "mualliflik matni" emasligi sababli uning fonetik, leksik, grammatik, hatto kompozitsion variantlari yuzaga keladi. Biroq variantlilik tasodifiy emas - u semantik yadroni saqlagan holda ijrochi, hudud va vaziyatga moslashadi. Aynan shu jarayon lingvofolkloristika uchun qimmatli: til birliklarining qaysi qismi barqaror, qaysi qismi moslashuvchan ekanini ko'rsatadi. O'zbek folklorida shevaga xos variantlar, ingliz folklorida regional lexical residue yoki archaic forms sifatida namoyon bo'ladigan birliklar tarixiy qatlam va mahalliy identitetni belgilaydi [8]. Formulalilik esa og'zakilik va variantlilikni bog'lab turuvchi ichki mexanizm sifatida tushuniladi. Formula - bu shunchaki takrorlanadigan birlik emas; u xotira tayanchi, semantik signal va kommunikativ tezlashtirgichdir. W.Mieder maqollarni xalq tajribasining qisqa, barqaror, ijtimoiy tasdiqlangan modeli sifatida tavsiflar ekan, formulalilikning baholovchi va didaktik funksiyasiga alohida e'tibor qaratadi [4]. O'zbek ilmiy an'anasida ham doston tilidagi takroriy tavsiflar, marosimdagi duo-formulalar, nasihat ifodalari va turg'un birikmalar aynan shu jihatdan tahlil qilinadi [7]. Demak, lingvofolkloristika formulani faqat poetik bezak emas, balki *ma'no ishlab chiqarishning struktur birligi* sifatida ko'radi.

Folklor matnining lingvistik tabiatini ochishda leksik-semantik tahlil markaziy o'rin tutadi. Chunki aynan leksik birliklar orqali xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy me'yorlari, axloqiy qarashlari va estetik baholari ifodalanadi. Brunvandning folklor materiallarini ensiklopedik yondashuvda yoritishi folklor leksikasini terminologik emas,

balki madaniy-semantik birlik sifatida o'qish zarurligini ko'rsatadi [2]. Masalan, ingliz folklorida weather, luck, witch, hearth, harvest kabi birliklar ko'pincha oddiy nominatsiya emas, balki ishonch, odat, qo'rquv yoki marosimiy tajriba bilan bog'langan ko'p qatlamli semantik markazlardir.

O'zbek folklor matnlarida ham shunday holat kuzatiladi: "non", "duo", "mehmon", "ota-ona", "nasib", "qadr", "uyat", "or", "baraka" kabi birliklar oddiy lug'aviy ma'nodan ancha keng lingvomadaniy maydonni faollashtiradi. Jumanazarov va Jumanazarova doston tili misolida lingvomadaniy birliklar xalq mentaliteti va tarixiy xotiraning kodlashgan shakli ekanini ko'rsatadilar [6]. Bu yondashuv lingvofolkloristika uchun juda muhim, chunki u qiyosiy tahlilni "so'z ekvivalenti" darajasidan "madaniy-semantik analogiya" darajasiga olib chiqadi.

Sh.Rahmatullayevning fe'l frazemalari bo'yicha izlanishlari esa folklor matnidagi turg'un leksik komplekslarni tushinishda metodologik tayanch bo'la oladi. U turg'un birikmaning ma'nosi ko'pincha komponentlar yig'indisiga teng emasligini, balki semantik yaxlitlik va bog'lanish modeli orqali shakllanishini ko'rsatadi [5]. Bu fikrni folklor matniga qo'llasak, maqol, matal, duo yoki qarg'ishdagi turg'un formulalarni aynan *komponentli emas, butun struktura* sifatida tahlil qilish kerak bo'ladi. Shunday ekan, lingvofolkloristika uchun bu juda muhim metodik xulosa: folklor leksikasini ajratib-ajratib emas, balki an'anaviy birliklar tarmog'i sifatida ko'rish zarur.

Lingvofolkloristikaning ilmiy-nazariy asoslaridan biri paremiologiya bilan uzviy bog'liqdir, chunki maqol va matallar folklor tilining eng ixcham, eng barqaror va eng semantik to'yingan qatlami hisoblanadi. W.Miederning paremiologiyaga oid ishlari maqollarni xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy me'yorlarini kodlovchi qisqa model sifatida talqin etadi [4]. Bunday yondashuv maqoldagi leksik birliklarning chastotasi, baholovchi funksiyasi va pragmatik yo'nalishini o'rganishga imkon beradi. Masalan, ingliz maqollarida time, work, tongue, friend, money kabi birliklar yuqori ijtimoiy-amaliy semantik yuklama bilan uchrasa, o'zbek maqollarida mehnat, sabr, odob, ota-ona, qo'ni-qo'shni, nasihat semantikasi kuchliroq namoyon bo'ladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi til xususiyatlariga oid kuzatishlari (ayniqsa og'zaki matndagi obrazlilik, turg'unlik va xalqona ifoda qatlamiga e'tibor) lingvofolkloristik tahlilda paremiologik materialni milliy til tajribasi bilan bog'lashga yordam beradi. Uning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, o'zbek folklor matnida leksik tanlov ko'pincha axloqiy nasihat, baholash va ijtimoiy muvozanatni saqlash vazifasi bilan birga keladi [8]. Bu jihat ingliz paremiologiyasidagi pragmatik yo'nalish bilan qiyoslanganda umumiylik (didaktiklik) va xoslik (madaniy tayanch obrazlar)ni ajratishga imkon beradi. Shaxsiy mulohaza sifatida shuni ta'kidlashni istardimki, o'zbek va ingliz maqollarini qiyosiy o'qishda eng katta xatolardan biri - faqat so'zma-so'z o'xshashlikka tayanishdir. Amalda esa ko'p hollarda mantiqiy model bir xil, lekin obraz va leksik tayanch boshqacha bo'ladi. Masalan, bir tilda "vaqt" markaziy tushuncha bo'lib ishlagan vaziyat boshqa tilda "mehnat" yoki "sabr" orqali ifodalanishi mumkin. Shuning uchun lingvofolkloristik qiyosiy tahlil "obrazni tarjima qilish" emas, balki "ma'no modelini tiklash"ga intilishi kerak. Bu yondashuv kelgusida paremiologik korpuslar yaratishda ham foydali bo'ladi.

Lingvofolkloristika nazariyasining muhim jihati - folklor matnini faqat ma'no tashuvchi emas, balki amal bajaruvchi nutqiy birlik sifatida ham talqin qilishdir. Bu yerda Bauman nazariyasi yana markazga chiqadi: folklor ifodasi ko'pincha performance sharoitida, ya'ni kim aytayotgani, qachon aytilgani, kimga qaratilgani va qanday intonatsiyada ifodalanganiga qarab to'liq ma'no kasb etadi [1]. Bu ayniqsa marosim matnlarida, duo-olqishlarda, qarg'ishlarda, hazil-

formulalarda va maqollarning suhbatdagi qo'llanishida yaqqol ko'rinadi. Bir xil maqol kitobda "nasihat" bo'lsa, jonli muloqotda u ogohlantirish, kinoya, tanbeh yoki taskin vazifasini bajarishi mumkin.

O'zbek folklor matnlarida marosimiy nutqning leksik tarkibi ko'pincha performativ kuchga ega bo'ladi: duo va tilak formulalari shunchaki "yaxshi so'z" emas, balki ijtimoiy munosabatni mustahkamlovchi, ruhiy qo'llab-quvvatlovchi va odobiy me'yorni tasdiqlovchi nutqiy amaldir [7]. Shu jihatdan lingvofolkloristika pragmatika bilan yaqinlashadi. Shunda, o'zbek lingvofolkloristikasida marosim matnlarini faqat etnografik tasvir darajasida emas, balki illokutiv kuch, adresatga ta'sir, ijtimoiy rol nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarur. Bu yo'nalish ilmiy jihatdan hali juda katta imkoniyatlarga ega.

Ingliz folklor materialida ham seasonal greetings, ritual sayings, communal formulas, proverbial speech acts kabi birliklar shu tarzda ishlaydi. Demak, qiyosiy nuqtayi nazardan ingliz va o'zbek folklorida pragmatik umumiyliklar mavjud: ikkalasida ham folklor birligi ko'pincha "til orqali ijtimoiy tartibni boshqarish" vositasi bo'lib xizmat qiladi. Farq esa buni ifodalovchi leksik vositalar, marosimiy kontekst va baholovchi uslubda namoyon bo'ladi.

Lingvofolkloristika bo'yicha ilmiy-nazariy asoslarni yaratishda bitta manbaga tayanish yetarli emas; aksincha, turli ilmiy maktablar yondashuvini integratsiya qilish zarur. Ushbu yondashuvlarni birlashtirish orqali o'zbek lingvofolkloristikasi faqat tavsifiy emas, balki konseptual-metodologik bosqichga ko'tarilishi mumkin. Menimcha, aynan shu integratsiya hozirgi davrda eng dolzarb vazifadir: milliy materialni jahon nazariyasi bilan uyg'unlashtirish, lekin mahalliy xususiyatni yo'qotmaslik. Bu o'rinda shaxsiy ilmiy mulohaza sifatida shuni aytish joizki, ba'zan biz folklor matnini "tayyor dalil" sifatida olamiz-u, uning ichki til mexanizmini yetarli chuqurlikda tahlil qilmaymiz. Vaholanki, birgina maqolning ichida leksik tanlov, semantik siqim, sintaktik ixchamlik, ritm, pragmatik yo'nalish va lingvomadaniy baho bir vaqtning o'zida ishlaydi. Shuning uchun lingvofolkloristik tadqiqotda ko'p qatlamli tahlil modeli (leksik + semantik + pragmatik + lingvomadaniy) qo'llansa, natija ancha ilmiy va ishonchli bo'ladi.

Quyida nazariy qarashlarni amaliyaroq ko'rsatish uchun bir necha tipik misol va shaxsiy mulohazalarni keltiramiz. Bu misollar to'liq korpus tahlili o'rnini bosmaydi, ammo lingvofolkloristik yondashuv qanday ishlashini ko'rsatadi.

Maqolning semantik modeli. Ingliz tilida vaqt va ishga doir paremiologik birliklar juda faol bo'lsa [4], o'zbek tilida mehnat va sabrga doir birliklar keng qo'llanadi [8]. Bu farqni "inglizlar vaqtning qadrlaydi, o'zbeklar sabrini" degan soddalashtirilgan xulosa bilan tushuntirish noto'g'ri bo'ladi.

To'g'riroq yondashuv shuki: ikkala an'anada ham natijaga erishish modeli mavjud, lekin birida u vaqt-intizom leksikasi orqali, boshqasida esa mehnat-sabr-odob kombinatsiyasi orqali ifodalanadi. Demak, qiyosiy tahlil "qaysi xalq qanday" degan stereotipga emas, qaysi semantik model qaysi leksik maydon orqali ifodalanadi degan ilmiy savolga tayanishi kerak.

Marosimiy nutq. O'zbek an'anasida duo va olqishlarda baraka, baxt, qut, omonlik, farovonlik, nasib kabi birliklar yuqori darajada performativ kuchga ega [5]. Ingliz an'anasida ham ritual greetings va blessing-type expressions mavjud bo'lib, ular ko'pincha ijtimoiy muloqotni me'yordashiradi [2]. Shaxsiy kuzatuvimga ko'ra, o'zbek marosim nutqida leksik birliklarning hissiy-axloqiy zichligi yuqori bo'ladi, ya'ni bitta formula bir vaqtning o'zida tilak, baho va ijtimoiy yaqinlikni bildiradi. Bu holatni lingvofolkloristika doirasida "ko'p funksiyali formulaviy birlik" sifatida alohida tipologiyalash mumkin.

Doston tili. Dostonlarda qahramon tavsifi, safar, sinov, jang, ota-ona duosi kabi segmentlarda formulaviy leksika takrorlanadi [6]. Ba'zan bu takror "ortiqcha"dek ko'rinadi, ammo og'zaki ijro nuqtayi nazaridan u xotira tayanichi va tinglovchi uchun semantik signal vazifasini bajaradi [3]. Shunday ekan, doston tilini yozma adabiyot mezonini bilan baholash o'rniga, uni og'zaki-kommunikativ samaradorlik mezonini bilan tahlil qilish kerak. Ana shunda takror, parallelizm va formulalilikning haqiqiy lisoniy funksiyasi ochildi.

Xulosa. Ingliz va o'zbek tillarida lingvofolkloristikaning ilmiy-nazariy asoslari ko'p qatlamli, fanlararo va qiyosiy yondashuvga tayanuvchi tizim ekanligi mazkur tahlilda ko'rsatildi. Folklor matni og'zakilik, variantlilik va formulalilik xususiyatlariga ega bo'lgan, leksik-semantik, pragmatik va lingvomadaniy jihatdan zich struktura bo'lib, uni faqat janriy tavsif bilan cheklab bo'lmaydi. Ingliz tilidagi ilmiy an'ana vakillari folklorning ijroi, madaniy, formulaviy va paremiologik tabiatini ochib bergan bo'lsa, o'zbek olimlari milliy folklor matnlarining lingvomadaniy, frazeologik va til xususiyatlarini tahlil qilish orqali ushbu yo'nalishga muhim ilmiy asos yaratganlar.

Maqoladagi shaxsiy mulohazalar va misollar shuni ko'rsatadiki, lingvofolkloristik tadqiqotda matnning faqat "mazmun manbai" sifatida emas, balki til mexanizmi, madaniy kod va pragmatik amal birligi sifatida tahlil qilish zarur. Kelgusida ushbu yo'nalishda korpusga asoslangan qiyosiy tadqiqotlar, janrlar bo'yicha folklor leksikasi xaritalari, marosimiy nutqning pragmatik tipologiyasi va folklor frazemalarining izohli lug'atini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlar lingvofolkloristikani mustaqil ilmiy platforma sifatida yanada mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Bauman R. Verbal Art as Performance / R. Bauman. – Prospect Heights : Waveland Press, 1984. – IX, 150 p.
2. Brunvand J.H. American Folklore: An Encyclopedia / J.H. Brunvand. – New York: Garland Publishing, 1996. – XVIII, 794 p.
3. Foley J.M. Oral-Formulaic Theory and Research: An Introduction and Annotated Bibliography – New York: Garland, 1985. – XVI, 718 p.
4. Mieder W. Proverbs: A Handbook / W. Mieder. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – XII, 304 p.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lanuvi / Sh. Rahmatullayev. – Toshkent: Universitet, 1992. – 126 b.
6. Жуманазаров, У. Халқ дostonлари тилидаги лингвомаданий бирликлар / У. Жуманазаров, Г. Жуманазарова. – Тошкент : Муҳаррир, 2019. – 252 б..
7. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – 192 б.
8. Мирзаев Т. Дostonлар гултожи // Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. – 1-жилд, Алпомиш. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги нашриёт, 2015. – 5–28 бетлар.